



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixojaga o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQUISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИСЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVATION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abduxalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIVAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадилова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIVASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIVAVIY TAHLILI.....	136
Musayeva Shoirazimovna	



KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH.....	144
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI.....	149
Madraximov Ilxom Kamilovich	
FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI.....	154
Zaripov Xusan Baxodirovich	
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION MODERNIZATSIYA QILISHDA INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	159
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	163
Jalilov Jamshid G'anjionovich, Safarov Zavqiddin Zokir o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	168
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
РОЛЬ СМЕШАННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ (BLENDED FINANCE) В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ: УРОКИ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН.....	174
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KORXONALARDA STRATEGIK BOSHQARUV.....	180
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
BANK TIZIMIDA MARKETING AHAMIYATI VA BANK MARKETINGI.....	184
Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORJIY KREDIT MABLAG'LARINI JALB KILISH HUQUQIY JIHATLARI.....	189
Qulliyev Anvar Zayniddinovich	
TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA CHAKANA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	194
Alimov Umid O'ktambayevich	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI PASPORTI TIZIMINI JORIY ETISH OMILLARI VA TO'SIQLARI.....	200
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
KORXONALARDA FOYDA VA ZARARLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION METODLAR AHAMIYATI.....	207
Ernazarov Ortiq Eshnazarovich, Farog'at Xo'jabekova	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ БЛАГОСОСТОЯНИЕ, А ТАКЖЕ НОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ.....	212
Остонов Егамберди	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYALASH: MOHIYATI VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI.....	218
Xakimova Xulkar Xamidovna	
QORAQALPOG'ISTON VA XORAZM OZIQ-OVQAT SANOATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI HAMDA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	224
Tleuov Niyetulla Raxmanovich	



QORAQALPOG'ISTON VA XORAZM OZIQ-OVQAT SANOATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI HAMDA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Tleuov Niyetulla Raxmanovich

Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD),

E-mail: niyetullatleuov@mail.ru

ORCID: 0000-0003-0107-8734

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston va Xorazm oziq-ovqat sanoatining joriy holati iqtisodiy va statistik usullar asosida tahlil qilingan. Oziq-ovqat mahsulotlari hajmi dinamikasi va uning o'sish tendensiyasi o'rganilgan. Natijalar asosida mualliflik yondashuvlari hamda shimoliy hudud oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sanoat, oziq-ovqat sanoati, xomashyo, oziq-ovqat mahsulotlari, iqtisodiy va statistik usullar.

Abstract. This article analyzes the current state of the food industry in Karakalpakstan and Khorezm based on economic and statistical methods. The dynamics of the volume of food products and its growth trend were studied. undefined.

Key words: industry, food industry, raw materials, food products, economic and statistical methods.

Аннотация. В данной статье на основе экономических и статистических методов проанализировано текущее состояние пищевой промышленности Каракалпакстана и Хорезма. Изучена динамика объема продовольственных товаров и тенденция его роста. undefined.

Ключевые слова: промышленность, пищевая промышленность, сырье, пищевые продукты, экономические и статистические методы.

KIRISH

Oziq-ovqat sanoati har qanday hududning iqtisodiy xavfsizligi, aholi farovonligi va ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydigan ustuvor tarmoqlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ushbu sohani modernizatsiya qilish, resurslardan samarali foydalanish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati kabi agrar imkoniyatlari yuqori bo'lgan hududlarda oziq-ovqat sanoatini kompleks rivojlantirish, uning tarmoqlararo integratsiyasini kuchaytirish va zamonaviy logistika infratuzilmasini shakllantirish barqaror iqtisodiy o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bois, Qoraqalpog'iston va Xorazmning o'ziga xos tarmoqlar kesimidagi rivojlanish ko'rsatkichlarini o'rganish, ishlab chiqarishning hududiy differensiasiyasini aniqlash, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash va kelgusida oziq-ovqat sanoatini innovatsion yo'nalishda rivojlantirishning ustuvor yo'llarini belgilash ushbu tadqiqotning asosiy vazifalarini tashkil etadi. Tadqiqotning statistik, ekonometrik va iqtisodiy-matematik yondashuvlarga tayanishi hududiy rivojlanishning real holatini aniqlash hamda aniq ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

Shu bilan birga, oziq-ovqat sanoatining modernizatsiyasi doirasida "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish, resurs-tejamkor texnologiyalarni keng qo'llash, klasterlashuv jarayonlarini kuchaytirish va eksport faoliyatini diversifikatsiya qilish Orolbo'yi hududining ekologik va ijtimoiy barqarorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu yondashuv hududlar iqtisodiyotida nafaqat sanoatning, balki umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichiga o'tish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi qabul qilingan. Mazkur strategiyada mahalliy xomashyo bazasidan samarali



foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish hamda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash yo'nalishida "Izlanish va rivojlantirish" (R&D) markazlarini tashkil etish kabi muhim maqsad va vazifalar belgilab berilgan [1].

Mazkur tadqiqotning yuqoridagi vazifalarning ijrosiga hamda shimoliy hududlarning oziq-ovqat sanoati bo'yicha iqtisodiy-statistik ko'rsatkichlari tahlili va uning tarkibiy o'zgarishlar dinamikasini o'rganish orqali ekologik omillarni hisobga olgan holda oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqishga qaratilganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash har bir davlat uchun eng murakkab, ko'p omilli va strategik ahamiyatga ega bo'lgan vazifalardan biridir. Chunki, aholining barqaror va sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlanmasligi sharoitida milliy xavfsizlikning to'liq kafolatlanishi mumkin emas.

Bu borada K.Tireuov va boshqalarning fikriча, tabiiy va iqtisodiy resurslar ya'ni, yer, suv, energiya, xomashyo hamda mehnat resurslari bo'yicha o'zini nisbatan to'liq ta'minlay oladigan mamlakatlarning o'zida ham aholining iste'moli uchun zarur bo'lgan asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini yetarli darajada ishlab chiqara olmaslik holati uchrab turadi. Shu sababli aksariyat davlatlarda ma'lum turdagi oziq-ovqat mahsulotlarida doimiy tanqislik kuzatiladi va ushbu ehtiyojni qoplash uchun importdan foydalanishga to'g'ri keladi [2].

Mazkur ilmiy yondashuv shuni ko'rsatadiki, resurslar yetarli bo'lgani bilan, ularni qayta ishlash darajasi past bo'lsa yoki ishlab chiqarish zanjiri yetarlicha shakllanmagan bo'lsa, oziq-ovqat xavfsizligini to'liq ta'minlash qiyinlashadi. Aynan, shunday holat ayrim O'zbekiston hududlarida, jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida ham kuzatiladi. Ushbu mintaqalarning agroiqtisodiy salohiyati yuqori bo'lsada, qayta ishlash sanoatining rivojlanish darajasi va mahsulot turlarining diversifikatsiyasi yetarli emasligi natijasida ayrim oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha importga ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

Xalqaro tajribalarni ko'ra, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishning ikki asosiy yo'li mavjud. Birinchi yondashuv – qishloq xo'jaligi mehnatining xalqaro taqsimotida faol ishtirok etish bo'lib, bu mamlakatning global oziq-ovqat bozorlariga moslashishini va ularga ma'lum darajada bog'liq bo'lishini anglatadi. Ikkinchi yondashuv – oqilona qishloq xo'jaligi proteksionizmi konsepsiyasini amalga oshirish, ya'ni milliy manfaatlarni himoyalovchi samarali mexanizmlarni qo'llashdir. Qaysi yo'lning ustuvorligini tanlash, avvalo, mamlakatning iqtisodiy mustaqillik darajasi, xalqaro maydondagi mavqei, milliy agrooziq-ovqat siyosatini amalga oshirish ko'rsatkichlari va eng muhimi, qishloq xo'jaligi hamda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan strategiyaning qanchalik samarali ekanligiga bog'liq [3].

Dunyo tajribasida eng ko'p uchraydigan amaliyot – ikki yondashuvning o'zaro uyg'unlashgan variantidir. Ya'ni, bir tomondan, qishloq xo'jaligi xomashyosining va uni qayta ishlash mahsulotlarining erkin savdosiga yo'l ochish, ikkinchi tomondan esa, zarur hollarda qishloq xo'jaligi proteksionizmining muayyan elementlaridan foydalanish orqali milliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash mexanizmini shakllantirishdir [4].

Ushbu yondashuv Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyatlarida ham dolzarb bo'lib, mintaqada oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, mahalliy ishlab chiqarish ulushini oshirish va importga bog'liqlikni kamaytirish uchun xalqaro tajribadagi muvozanatli modelni qo'llash muhimdir.

Shu bilan birga AQSh, Kanada va Avstraliya kabi rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, boshqaruvni optimallashtirish, xizmatlarni axborotlashtirish va elektron savdo maydonlarini rivojlantirish orqali bu tarmoqning butun iqtisodiy modelini tubdan o'zgartirib yubormoqda. Ushbu davlatlarda "raqamli qishloq xo'jaligi"ga o'tish nafaqat qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash samaradorligini oshirmoqda, balki oziq-ovqat sanoati parklarining shakllanishi, elektron savdo platformalarining kengayishi va oziq-ovqat qiymat zanjirining barqaror rivojlanishiga zamin yaratmoqda [5].

Germaniya tajribasida e'tibor qaratiladigan yana bir muhim jihat shundaki, mamlakatda oziq-ovqat qiymat zanjirini o'rganish jarayonida so'nggi yillarda oziq-ovqat mahsulotlarining turli bosqichlarda yo'qotilishi sezilarli darajada yuqori ekani aniqlangan. Shu sababli, bu yo'qotishlarning aniq miqdorini baholash, ularning sabablari va oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqishga bo'lgan ilmiy va amaliy qiziqish keskin oshib bormoqda [6]. Haqiqatan ham, oziq-ovqat yo'qotilishini kamaytirish oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda, resurslardan samarali foydalanishda va ishlab chiqarish tannaxrini pasaytirishda muhim iqtisodiy ahamiyatga ega [7].

Xalqaro prognozlariga ko'ra, yaqin yillarda global miqyosda oziq-ovqat yo'qotilishining umumiy hajmi 126 million tonnagacha yetishi kutilmoqda [8]. Aholi sonining jadal o'sishi, urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi va oziq-ovqat iste'moli tuzilmasidagi o'zgarishlar ushbu muammoning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, sut va go'sht mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borishi natijasida 2050-yilga borib oziq-ovqat ishlab chiqarishni 60-110 foizgacha kengaytirish zarur bo'lishi prognoz qilinmoqda [9].



Ushbu global tendensiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati uchun ham bevosita ahamiyatga ega. Chunki, mintaqalarda qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlash darajasi yetarli emasligi, logistika infratuzilmasining ayrim jihatdan sustligi va mahsulot saqlash zanjiridagi yo'qotishlar oziq-ovqat sanoati samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun Germaniya kabi ilg'or davlatlar tajribasida qo'llanilayotgan oziq-ovqat yo'qotilishini kamaytirish mexanizmlari, resursni tejovchi texnologiyalar, sovetish-logistika tizimlari va monitoring yondashuvlarini mintaqaviy sharoitga moslashtirish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda rasmiy statistik ma'lumotlar, statistik kuzatish, taqqoslama tahlil, sintez, mantiqiy fikrlash, jadval va grafik, solishtirma tahlil, statistik usullaridan keng foydalanilgan. Statistik tahlil uchun O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillarga ko'ra, 2010-2024-yillar davomida sanoat mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish hajmlarining dinamikasi tahlili ushbu tarmoqlarda izchil va barqaror o'sish mavjudligini ko'rsatadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2010-yildagi 38,1 trln so'mdan 2024-yilda 880,2 trln so'mga yetib, 14 yil davomida qariyb 23 martaga oshgan. Bunday keskin o'sish sanoatning umumiy modernizatsiya jarayonlari, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi, investitsiya faoliyatining kuchayishi va texnologik yangilanishlar bilan bog'liqdir.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ham sezilarli darajada ortgan bo'lib, 2010-yildagi 5,5 trln so'mlik ko'rsatkich 2024-yilga kelib 102,7 trln so'mni tashkil etmoqda. Bu 18,6 baravarlik o'sish demakdir. Ushbu sektor iqtisodiyotning eng barqaror rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lib, ichki bozor talabining ortishi, qayta ishlash korxonalarining ko'payishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan davlat qo'llab-quvvatlovi bilan ifodalanadi.

1-jadval. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi¹, mlrd. so'm

Tarmoqlar	2010	2012	2014	2016	2018	2020	2022	2024
Sanoat mahsuloti	38119	57552,5	84011,6	111869,4	235340,7	368740,2	553265	880198,5
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	5521,5	8610,6	14387,2	22400,5	25256	42314,9	57547,3	102732,6
Ichimliklar ishlab chiqarish	922,4	1480,5	2082,9	3364,7	4948,9	7417,6	16111,3	24118,1

Ichimliklar ishlab chiqarish esa eng tez sur'atlarda o'sayotgan tarmoq bo'lib, 2010-yildagi 922,4 mlrd so'mdan 2024-yilda 24,1 trln so'mga yetgan. O'sish darajasi 26 martadan ortiq bo'lib, bu tarmoq innovatsion texnologiyalar joriy etilishi, talabning kengayishi va ichki bozor diversifikatsiyasi bilan belgilanadi. Mazkur yo'nalish bozorning yangi tarmoqlarini shakllantirish va qo'shimcha qiymat yaratish nuqtai nazaridan katta imkoniyatlarga ega.

Yillar kesimida o'sish bosqichlarini baholaganda, 2010-2014-yillar nisbatan barqaror o'sish davri bo'lib, barcha tarmoqlarda o'rtacha yillik o'sish 15-20 foiz atrofida shakllangan. 2015-2018-yillar esa tuzilmaviy o'zgarishlar bilan ajralib turadi: ayniqsa oziq-ovqat sanoatida 2015-yildagi 18,5 trln so'mdan 2018-yilda 25,2 trln so'mga o'sish kuzatilgan. Ichimliklar tarmog'i ham bu davrda ikki barovardan ortiq kengaygan. 2019-2021-yillarda sanoatning umumiy hajmi 322,5 trln so'mdan 456 trln so'mga oshib, iqtisodiyotda modernizatsiya jarayonlari faollashganini ko'rsatadi. 2022-2024-yillar esa eng yuqori o'sish sur'atlari bilan ajraladi. Sanoat mahsulotlari 553,2 trln so'mdan 880,2 trln so'mga, oziq-ovqat mahsulotlari esa 57,5 trln so'mdan 102,7 trln so'mga oshgan. Ichimliklar tarmog'i ham aynan shu yillarda keskin o'sish sur'ati bilan ajralib turadi.

Mazkur hududlar agrar salohiyati yuqori bo'lishiga qaramay, xomashyo qayta ishlash darajasi pastligi tufayli qo'shimcha qiymatning katta qismi yo'qotilmoqda. Respublika bo'yicha oziq-ovqat va ichimliklar sanoatida kuzatilgan tezkor o'sish shuni anglatadiki, mintaqalarda oziq-ovqat klasterlarini shakllantirish, qayta ishlash korxonalarini modernizatsiya qilish, logistika va saqlash zanjirini takomillashtirish hamda bozorlarga yetkazib berish tizimini raqamlashtirish orqali katta iqtisodiy samaraga erishish mumkin.

1 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.



Umuman olganda, 2010-2024-yillardagi statistik dinamikalar O'zbekiston sanoati, xususan oziq-ovqat va ichimliklar tarmoqlarida chuqur tarkibiy o'sish jarayoni ketayotganini ko'rsatadi. Bu jarayon Qoraqalpog'iston va Xorazm kabi agrar hududlar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratib, tarmoqlarni innovatsion rivojlantirish va qayta ishlash hajmini kengaytirish zarurligini taqozo etadi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,7 % (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish-ning ulushi – 7,7 % (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,1 %) ni tashkil etdi.


2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 13,8 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 104,5 % va ishlab chiqarish hajmi 103692,9 mlrd so'mga to'g'ri keldi. Ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,3 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 99,0 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 25074,2 mlrd so'mga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, eksport tarkibida tovarlar ulushi 73,3 % ni tashkil etib, ulardan: boshqa tovarlar (28,0), sanoat tovarlari (15,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (8,1 %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (6,3 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2024-yil yanvar-dekabrda oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 1 549,5 mln AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan 31,2 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 5,8 % ni tashkil etdi.

Meva – sabzavot mahsulotlarini eksport hajmi mos davrga nisbatan o'zgarishi no'xat –13,1 m., uzum – 2,2 m., sabzi – 81,1 %, karam – 68,8 %, yeryong'oq – 64,4 %, o'rik – 52,9 %, shaftoli – 44,2 %, gilos – 33,0 %, olxo'ri – 18,5 % ga o'sdi.

2024-yil yanvar-dekabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiyaga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 40,0 %) bu ko'rsatkich Qirgiz Respublikasiga eksport hajmidan 5,4 baravar ko'p.



1-rasm. Oziq-ovqat mahsulotlari hajmining o'sish tendensiyasi²

2024-yilning yanvar-dekabrda "Don ekinlari va yorma mahsulotlari" (99,5 % ga 109,7 %), "Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari" (106,5 % ga 107,7 %), "Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum" (102,0 % ga 111,2 %), "Mevalar va yong'oqlar" (81,8 % ga 137,1 %) va "Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar" (103,3 % ga 109,9 %) guruhlarida INI 2023-yilning mos ko'rsatkichidan sezilarli darajada past bo'lgan. Go'sht va yog'-moy mahsulotlari, aksincha, 2024-yilda (2023-yilganisbatan) oshgan.

2024-yil uchun oziq-ovqat mahsulotlari guruhlar bo'yicha ishlab chiqarish o'sish ko'rsatkichlari tahlili sektor ichida turli yo'nalishlarning rivojlanish sur'atlari sezilarli darajada farqlanishini yaqqol namoyon etadi. Don mahsulotlari va yormalar guruhida o'sishning 99,5 foiz darajasida barqarorlashuvi ushbu tarmoqda ishlab chiqarish hajmi amalda o'z holatini saqlab qolgani, bozordagi taklifning ichki iste'mol bilan muvozanatlashganini ko'rsatadi. Biroq go'sht, yog'lar va moylar, shuningdek baliq mahsulotlarida 106-112 foizgacha kuzatilgan yuqori o'sish sur'atlari aholining oqsilli va yuqori energiya qiymatiga ega oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabining ortayotganini, shuningdek ushbu tarmoqlarda modernizatsiya jarayonlari faol kechayotganini tasdiqlaydi.

2 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.



Mevalar va yong'oqlar bo'yicha o'sishning 81,8 foiz darajasida qolishi mazkur tarmoqda saqlash va qayta ishlash infratuzilmasining yetarli emasligi, mavsumiylik darajasi yuqoriligi va logistika samaradorligining pastligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, sabzavotlar, ildizmevalilar, dukkaklilar, shakar va desert mahsulotlari guruhlar 100-103 foizlik o'sish bilan nisbatan barqaror dinamikani namoyon etgan.

Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar bo'yicha yuqori o'sish (mos ravishda 107,1 va 109,9 foiz) iqtisodiyotda chuqur qayta ishlash tarmoqlarining kengayib borayotganini, aholining iste'mol tuzilmasida qayta ishlangan va tayyor mahsulotlarga talab ortib borayotganini ko'rsatadi. Ushbu tendensiyalar qo'shimcha qiymat zanjirining kengayishi, mahsulot assortimenti va bozordagi raqobat muhiti rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat sanoati ichida o'sish darajalari bo'yicha differensial tendensiyalar mavjud bo'lib, bu tarmoqda tarkibiy islohotlarning davom etayotganini, ba'zi tarmoqlarda esa qo'shimcha investitsiya va infratuzilma qo'llab-quvvatlashiga ehtiyoj borligini anglatadi. Ayniqsa, meva-sabzavot sektori va don mahsulotlari tarmog'i samaradorligini oshirish uchun logistika, saqlash, muzlatish va qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati kontekstida mazkur natijalar ayniqsa ahamiyatlidir. Chunki, mintaqalarda meva-sabzavot, sut, go'sht, yog'-moy va baliq mahsulotlari bo'yicha xomashyo bazasi mavjud bo'lsa-da, qayta ishlash darajasining pastligi sababli qo'shimcha qiymatning katta qismi yo'qotilmoqda. Grafikda qayd etilgan yuqori o'sish sur'atlari (go'sht, yog'lar, tayyor oziq-ovqat, spirtsiz ichimliklar) mintaqalar uchun strategik ustuvor yo'nalish sifatida qayta ishlash sanoatini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Shu bois oziq-ovqat sanoatining izchil rivojlanishini ta'minlash uchun quyidagi ilmiy asoslangan yo'nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etadi: xomashyoni chuqur qayta ishlash ulushini oshirish, saqlash va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, raqamlashtirish asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mintaqaviy klasterlashuv jarayonlarini kuchaytirish.

Umuman olganda, grafik ma'lumotlar tahlili oziq-ovqat bozori tarkibida sezilarli dinamik va tuzilmaviy o'zgarishlar yuz berayotganini ko'rsatadi. Bu esa, O'zbekistonning umumiy oziq-ovqat xavfsizligi tizimini mustahkamlash bilan birga, Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyatlarida ham iqtisodiy o'sishning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Qoraqalpog'iston va Xorazm oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish yo'llari sifatida quyidagilarni ro'rsatish maqsadga muvofiq:

- Qoraqalpog'iston va Xorazmda sanoatni xomashyo yetishtirishdan tayyor mahsulotgacha to'liq siklga o'tkazish;
- go'sht, sut, baliq hamda sabzavot mahsulotlarini chuqur qayta ishlaydigan yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish;
- zamonaviy sovitkich omborlari, muzlatish tizimlari va qadoqlash markazlarining barpo qilish;
- mahsulot yo'qotilishini kamaytiruvchi logistika zanjirlarini optimallashtirish;
- raqamli monitoring, dron-laboratoriyalar, aqlli sensorlar yordamida hosildorlik va sifat nazorati tizimini kuchaytirish;
- oziq-ovqat sanoati korxonalarida ERP, SCM, CRM kabi boshqaruv tarmoqlarini joriy etish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid, sotuv va yetkazib berishda elektron savdo platformalarini yaratish;
- oziq-ovqat sanoatida xalqaro standartlar (HACCP, ISO 22000, Global GAP) bo'yicha sertifikatlashtirish tizimini kengaytirish;
- xomashyo xaridini kafolatlaydigan uzoq muddatli shartnomalar tizimini yo'lga qo'yish;
- tarmoqlararo kooperatsiyani rag'batlantirish uchun soliqlar va kredit imtiyozlari joriy qilish lozim.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi ilmiy-amaliy takliflar O'zbekistonning, xususan Qoraqalpog'iston va Xorazmning oziq-ovqat sanoatini modernizatsiya qilish, qayta ishlash ulushini oshirish, eksport salohiyatini kuchaytirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Chunki, ular zamonaviy texnologiyalar, klasterlashuv, raqamlashtirish va logistikani rivojlantirishga qaratilgan. Bu esa tarmoqni har tomonlama rivojlantirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Тиреуов К., Мизанбекова С., Мизанбеков И. Продовольственная безопасность как важный фактор социально-экономического развития страны // Аграрная экономика. №3, 2020г. с.63-64
3. Тиреуов, К.М. АПК в условиях глобализации экономики. – Алматы, 2016. – 229 с.
4. Ушачев И.Г. и др. Импортзамещение в АПК России: проблемы и перспективы. – Москва, 2015. – 767 с.



5. Sandu I.S., Nechaev V.I., Voiku I.P. State support for the digital transformation of agriculture in the region: a methodological approach // Economics of agricultural and processing enterprises.- 2019.- No12.- P.66-70.
6. Katajajuuri J.-M. et al. Food waste in the Finnish food chain // Journal of Cleaner Production. Volume 73, 15 June 2014, Pages 322-329
7. Garrone P. et al. Opening the black box of food waste reduction // Food Policy. Volume 46, June 2014, Pages 129-139
8. Mirabella N. et al. Current options for the valorization of food manufacturing waste: a review // Journal of Cleaner Production Volume 65, 15 February 2014, Pages 28-41
9. Garrone P. et al. Opening the black box of food waste reduction // Food Policy. Volume 46, June 2014, Pages 129-139
10. <https://stat.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
